



## XALQ DEPUTATLARI TOYLOQ TUMANI KENGASHINING QARORI

2024-yil 1-aprel

VI-89-36-7-104-K/24

Toyloq tumani

**Tuman irrigatsiya bo‘limi boshlig‘i B.Axadovning Suv resurslarini boshqarish, suv xo‘jaligi obyektlarining texnik holatini yaxshilash, shuningdek, tumanda suv tejoyvchi sug‘orish texnologiyalarini joriy etish holati yuzasidan hisoboti to‘g‘risida**

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 10-iyuldagi “O‘zbekiston Respublikasi suv xo‘jaligini rivojlantirishning 2020-2030-yillarga mo‘ljallangan konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PF-6024-sonli farmoni, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 1-martdagi “Qishloq xo‘jaligida suvni tejaydigan texnologiyalarni joriy etishni yana-da takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-144-sonli, 2024-yil 5-yanvardagi “Quyida bo‘g‘inda suv resurslarini boshqarish tizimini takomillashtirish hamda suv resurslaridan foydalanish samaradorligini oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-5sonli qarorlari hamda “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonunining 6- va 24-moddalariga asosan xalq deputatlari tuman Kengashining sakson to‘qqizinchi sessiyasi

### **QAROR QILADI:**

1. Tuman irrigatsiya bo‘limi boshlig‘i B.Axadovning Suv resurslarini boshqarish, suv xo‘jaligi obyektlarining texnik holatini yaxshilash, shuningdek, tumanda suv tejoyvchi sug‘orish texnologiyalarini joriy etish holati yuzasidan hisoboti ma‘lumot uchun qabul qilinsin.

2. Tuman qishloq xo‘jaligi bo‘limi (H.Narziqulov), tuman irrigatsiya bo‘limi boshlig‘i (B.Axadov)ga;

suvni tejaydigan sug‘orish texnologiyalarini joriy qiluvchi fermer xo‘jaliklari, klaster tashkilotlari va boshqa qishloq xo‘jaligi mahsulotlari ishlab chiqaruvchilarning takliflarini belgilangan tartibda o‘rganib chiqish va xulosalar berish;

yer uchastkasining meliorativ holati (tuproq sho‘rlanish darajasi, yer osti suv sathi), suv va elektr energiya ta‘minoti hamda talabgorning moliyaviy holatini tahlil qilgan holda suv tejoyvchi sug‘orish texnologiyalarini joriy etish bo‘yicha takliflar ishlab chiqish;

suvni tejaydigan sugʻorish texnologiyalari tizimidan samarali foydalanish boʻyicha talabgorlar va boshqa manfaatdorlar uchun qisqa muddatli oʻquv kurslarini tashkil etish;

suvni tejaydigan sugʻorish texnologiyalarini joriy qilish va ulardan foydalanish boʻyicha tumanlararo tajriba almashuvlarni yoʻlga qoʻyish;

suvni tejaydigan sugʻorish texnologiyalarini joriy qilish boʻyicha talabgorlarga soha boʻyicha malakali mutaxassislarni biriktirish hamda ularga tizimdan samarali foydalanish boʻyicha amaliy yordam koʻrsatish;

tik quduqlarning nasoslarini taʼmirlash va xoʻjalik ichki sugʻorish tarmoqlarini rekonstruksiya qilish;

irrigatsiya va melioratsiya obyektlarining xavfsiz va barqaror ishlashini taʼminlash (irrigatsiya-melioratsiya obyektlarini qurish, rekonstruksiya qilish va taʼmirlash-tiklash) ishlarni toʻliq yakunlash vazifalari yuklatilsin.

3. Mazkur qarorning ijrosini nazorat qilish xalq deputatlari tuman Kengashining Agrar, suv xoʻjaligi masalalari va ekologiya boʻyicha doimiy komissiyasi (Oʻ.Usmonov) zimmasiga yuklansin.

4. Ushbu qaror qabul qilingan kundan kuchga kiradi.

Sessiya raisi



YULDASHOVA  
MUTABAR  
ABDUMANONOVNA